

“Ozuqa qo’shimchalar, xushbo’ylantiruvchilar, biologik faol qo’shimchalar va texnologik yordamchi vositalarga qo’yiladigan xavfsizlik talablari Texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qaror loyihasi e’lon qilindi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va "O‘zstandart" agentligi mutaxassislari ishtirokida tashkil etilgan Ishchi guruh tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi “Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4059-son qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan “Ozuqa qo’shimchalar, xushbo’ylantiruvchilar, biologik faol qo’shimchalar va texnologik yordamchi vositalarga qo’yiladigan xavfsizlik talablari Texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirdi. Qaror loyihasining to‘liq matni bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: <https://regulation.gov.uz/ru/d/25779>